Viloyatlar	Tekshirilgan hayvonlar soni, bosh	Ekstenszararlanganlik							
		marshallagioz		nematodiroz		boshqa oshqozon-ichak strongilyatozlari		gelmintozlar bilan umumiy zararlantirish	
		bosh	%	bosh	%	bosh	%	bosh	%
*Navoiy	82	1	1,2	-	-	19	23,2	43	52,43
Buxoro	124	-	-	2	1,6	30	24,2	49	39,1
Ja’mi	206	1	0,48	2	0,96	49	23,8	92	44,6

Ma’lumki, bizning respublikamizda parrandachilik sohasi ham so‘mgi yillarda jadal tarzda rivojlanib bormoqda. Bu sohaning rivojlanishida avvalo hukumatimizning davlat siyosati darajasida e’tibori desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari yirik ixtisoslashgan parrandachilik xo‘jaliklarining tashkil etilishi, turli sanoat korxonalarning yordamchi xo‘jaliklari va aholining shaxsiy xo‘jaliklarida ko‘plab parranda, ayniqsa tovuq boqilib, aholini parhez taomlar – tuxum va parranda go’shti bilan ta’minlash rivojlanib bormoqda.

Ushbu turdagi xo‘jaliklarda ham parrandalarning turli kasalliklari, jumladan gelmintozlari uchrab turadi. Biz respublikamizning Navoiy va Buxoro viloyatlarida asosan yerda saqlab boqiladigan parranda (tovuq)lar orasida gelmintozlarning qanday darajada tarqalganligini aniqlash maqsadida Navoiy viloyatining ayrim tumanlaridan 76 bosh, Buxoro viloyatidagi ayrim tumanlardan esa 92 bosh jami 168 bosh tovuqlarni

gelmintologik tekshirib ularning umuman 47 foizi gelmintozlar bilan, jumladan 26,7% tovuqlar askaridioz bilan, 33,3% - geterakidoz bilan, 11,3% kapilyarioz bilan zararlanganligi aniqlandi.

Navoiy viloyatida tovuqlarning gelmintozlar bilan umumiy zararlanganligi 43,4 foizni, askaridioz bilan zararlanganlik 26,3%, geterakidoz bilan – 32,9%, kapilyarioz bilan – 4,0 foizni tashkil qildi.

Buxoro viloyatida bu ko‘rsatgichlar mos ravishda 50,0, 27,2, 33,7, 17,4 foizni tashkil qilishi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Respublikaning Navoiy va Buxoro viloyatlarida parranda (tovuq)larning gelmintozlar bilan ekstenszararlanganligi

Viloyatlar	Tekshirilgan parranda (bosh)	Ekstenszararlanganlik, %			
		askaridioz	geterakidoz	kapilyarioz	gelmintozlar bilan umumiy zararlanganlik
Navoiy	76	26,3	32,9	4,0	43,4
Buxoro	92	27,2	33,7	17,4	50,0
Ja'mi	168	26,7	33,3	11,3	47,0

Ma'lum bo'ldiki, Navoiy va Buxoro viloyatlarida hudud iqlimining quruq va issiq bo'lishiga qaramasdan parranda (tovuq)lar orasida askaridioz va geterakidoz keng tarqalgan, Buxoro viloyatida, parrandalar orasida kapilyarioz ham uchrashligi ma'lum bo'ldi.

XULOSALAR

1. Yuqorida aniqlangan ma'lumotlar Navoiy va Buxoro viloyatlarning keskin-kontinental iqlimi, hududining ma'lum qismi sho'rlanganligiga qaramasdan chorva hayvonlari orasida gelmintozlar birmuncha keng tarqalgan bo'lib, ular chorva hayvonlari patologiyasiga va chorva hayvonlari mahsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Qoramollar orasida gelmintozlar tarqalishining yana bir jihati – oxirgi yillar qoramollar orasida oldin deyarli kuzatilmagan gelmintozlarning paydo bo‘lishi, ya’ni qoramollar orasida toksokaroz bilan zararlanganlik (Buxoro viloyatida 17,7%, Navoiy viloyatida 37,8%) e’tiborni jalb qiladi va bu holatni bartaraf etish chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi.

3. Parrandachilikka ixtisoslashgan fermer-dehqon xo‘jaliklari, sanoat korxonalarining yordamchi xo‘jaliklari va aholining shaxsiy xo‘jaliklarida gelmintozlar askaridioz, geterakidoz, kapilyarioz sezilarli darajada zarar yetkazishini hisobga olib bu kasalliklarni oldini olish choralarini amalga oshirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Иргашев И.Х. Гельминты и гельминтозы каракульских овец. Ташкент, 1971. 283 с.
2. Никольский Я.Д. Методы качественного и количественного анализа для прижизненной диагностики гельминтозов мелкого рогатого скота. //Тр. УзНИВИ, т.14, 1961. –С. 153-159.
3. Oripov A.O., Yo‘ldoshev N.E. Qorako‘l qo‘ylarning asosiy gelmintozlari. Toshkent, 2009. 151 b.
4. Oripov A.O., Davlatov R.B., Yo‘ldoshev N.E. Veterinariya gelmintologiyasi. Toshkent, 2016. 239 b.

INTIZOMIY JAZO OLGAN ISHCHI-XODIMNI RAG‘BATLANTIRISH

Ramazonov Temurbek Farxod o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mehnat huquqi mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat muassasalarida ishlab, intizomiy jazo olgan ishchi-xodimning rag‘batlantirish olish yoki olmasligiga huquqiy baho berilib, qisqacha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Rag‘batlantirish, mehnat qonunchiligi, “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonuni, davlat xizmatchilari.

Davlat xizmatini tashkil etishda, uning rivojlanishi hamda faoliyatida barqarorlikni ta’minlash maqsadida davlat xizmatida o‘rnak bo‘layotgan xodimlarni rag‘batlantirish maqbul yo‘llardan biri sanaladi. Boisi, rag‘batlantirish intizomning, mehnat sifatining yaxshilanishiga yordam beradi, xizmatchilarning tashabbuskorlik va javobgarlik ruhida tarbiyalaydi.

Rag‘batlantirish hamma vaqt ma’lum bir huquqiy asosga tayanadi. U - o‘z vaqtida, obyektiv va ma’lum bir ahamiyatli bo‘lishi kerak. Rag‘batlantirish shunday qo‘llanilishi lozimki, u boshqaruv ishining yuqori natijalariga erishishning stimulgiga aylanishi lozim. Bu ma’noda rag‘batlantirish muvozanatga solishning turi (shakli) hisoblanadi. Shunga ko‘ra, quyida davlat xizmatchilarning rag‘batlantirish tartibining huquqiy asoslarini hamda ushbu sohada yetakchi xorij davlatlarining tajribasini tahlil qilgan holda ko‘rib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasiga asosan, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalash huquqiga egadir.

Mehnat qonunchilikka asosan, ishdagi yutuqlar uchun xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilishi mumkin. Rag‘batlantirish turlari, ularni qo‘llanish tartibi, afzallik va imtiyozlar berish jamoa shartnomalari, ichki mehnat tartibi qoidalari va boshqa lokal hujjatlarda, jamoa kelishuvlarida, intizom to‘g‘risidagi ustav va nizomlarda belgilab qo‘yiladi.

Qolaversa, xodimlar mehnat sohasida davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin. Ish haqi, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirish turlariga kirmaydi. Intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag‘batlantirish choralari qo‘llanilmaydi.

Qayd etish joizki, davlat xizmati faoliyati bitta normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solinmaydi. Har bir davlat organi qabul qilingan alohida normativ hujjat bilan o‘z xizmat faoliyatini amalga oshiradi. Demak, davlat xizmatchilarini rag‘batlantirish ham, tegishli davlat organining xizmat faoliyatini tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy hujjatida ko‘rsatilgan normalar asosida amalga oshiriladi.

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentyabrdagi PQ-2036-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, prokuratura organlari xodimlari xizmatdagi tashabbuskorliklari va tezkorligi, xizmat vazifalarini vijdonan va namunali bajarganliklari uchun rag‘batlantiriladilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan shaxslar imtiyozlardan foydalanadi, pul to‘lovlari yoki esdalik sovg‘alari olishi belgilangan.

Amaliyotda ko‘rishimiz mumkinki, davlat xizmatchilariga intizomiy jazo choralaridan biri qo‘llanilgan hollarda, ularga mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar berilmasligi mumkin.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 180-moddasi 3-qismiga asosan, ish haqi, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirish turlariga kirmasligi

qayd etilgan. Shunga binoan, mukofot puli davlat organida o‘rnatilgan mehnat haqi tizimi bo‘yicha to‘lansa, bu to‘lov intizomiy jazo choralari qo‘llanilgan xodimlarga to‘lanishi mumkin bo‘ladi. Demak, mukofot puli rag‘batlantirish turiga kirish-kirmasligi har bir aniq holatda davlat tashkilotlarida xodimlarning vakillik organi bilan kelishilgan tarzda o‘rnatilgan mehnatga haq to‘lash tizimidan kelib chiqadi.

Qolaversa, davlat maxsus xizmati organlarining xizmat faoliyatiga oid normativ hujjatlarida aynan shu kabi mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan to‘lovlar rag‘batlantirish turiga kirmasligi ko‘rsatilgan. Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari va muassasalarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizomga ko‘ra, ish haqi, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustamalar va mehnat haqi tizimida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirish turlariga kirmasligi belgilangan. Qo‘shimch ravishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi PQ-3413-son qarori bilan tasdiqlangan Ichki ishlar organlarining intizom ustaviga ko‘ra, oylik ish haqi, mukofotlar, qo‘shimcha to‘lovlar, ustama haqlari va xodimlarning pul ta‘minotida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar rag‘batlantirishga kirmasligi belgilangan.

Davlat xizmatchilariga rag‘batlantirish tayinlanayotganda xizmatchining ish natijasi doim ham aniq baholanavermaydi. Ushbu holatda, bugungi kunda qo‘llanib kelinayotgan davlat xizmatchilarining baholashning zamonaviy usullaridan biri KPI tizimi natijalaridan kelib chiqib, rag‘batlantirish qo‘llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xulosa o‘rnida takidlash lozimki, davlat xizmatchilariga beriladigan rag‘batlantirish turi sifatida qayd etilmagan pul ko‘rinishidagi mablag‘larni mehnat haqi tizimi sifatida davlat fuqarolik xizmati organlari jamoat shartnomalarida hamda davlat maxsus xizmati organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlarda aks ettirish umumiy mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishiga olib keladi, qolaversa yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muammolar oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. «Adolat» 2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 12-sentyabrdagi PQ-2036-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat mukofotlari to‘g‘risida”gi Qonuni
4. www.lex.uz



ВИДЫ, СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЯ КОСТНОГО КЛЕЯ

Отамуродов Журабек Отаниёзович

Докторант Бухорского инженерно-технологического института

E-mail: jurabek_i@mail.ru

Саидов Жамшид Аббос угли

E-mail: jamshid_saidov@bk.ru

Студент Бухорского инженерно-технологического института

АННОТАЦИЯ

В данном материале рассматриваются виды костного клея и их применения. Оптимальный вариант и этапы приготовления костного и мездрового клея. Приведены примеры для улучшения качества клеевого состава.

Ключевые слова: костный клей, мездровый клей, кожа, глютин, гранула, субстанция, антисептик.

TYPES, PROPERTIES AND APPLICATIONS OF BONE GLUE

ABSTRACT

This material discusses the types of bone glue and their applications. The best option and the stages of preparation of bone and scrapings glue. Examples are given to improve the quality of the adhesive composition.

Keywords: bone glue, scrapings glue, skin, gluten, granule, substance, antiseptic.

Костный клей в большинстве вариаций представляет собой соответствующую основу на базе органических компонентов. Они позволяют эффективно соединить элементы из дерева, картона и прочих похожих

материалов. Само соединение отличается максимальной прочностью, даже при разрушении конструкции можно заметить, что деформируется не клеевой слой, а прилегающие к нему слои древесины или аналогов.

Для приготовления органических клеев используется несколько основных видов, отличающихся по основным компонентам: мездровый клей, рыбий клей и чисто костный клей.

Костный клей наиболее распространена, состав получается из костных отходов животных. Самыми ценными экземплярами считаются гранулы, полученные из рогов. В набор входит коллаген, желатин и цистеин, которые обладают прекрасной вязкостью, способны прочно склеивать кожантатерейные изделия и похожих материалов. Мездровый клей изготавливается из отходов кожевенной промышленности. По сути, основная часть материала состоит из подкожной клетчатки, срезанной при выделке шкур. В состав этого клея часто добавляются обрезки натуральной кожи.

Рыбий костный клей готовят из костей, голов, чешуи, внутренностей, плавников. Эта субстанция самая дорогая, при этом она часто используется для реставрации картин и прочих работ, требующих максимальной внимательности и аккуратности. Производится состав для скрепления разнородных частей, выпускается в виде гранул или чешуек. Рассмотрим особенности всех вариаций, а также особенности их эксплуатации.

Костный клей продается в сухом виде. Масса собой представляет коричневые или желтые гранулы небольшого размера, иногда этот материал представлен в виде небольших плит. Качество состава можно определить визуально. Чем чище и светлее материал, тем качественнее продукт. Плитку нужно раздробить до состояния крошки, после чего использовать по прямому назначению. Приготовление костного клея подразделяется на следующие этапы:

Замачивание

Порошок или гранулы заливают холодной, предварительно кипяченой водой. Жидкость из-под крана может негативно сказаться на качестве готовой

массы. Заполняют емкость таким образом, чтобы были покрыты все элементы клеевого состава. Замачивание считается правильным, если субстанция станет мягкой и студенистой. Процесс замачивания занимает от 4-х до 12-ти часов, в зависимости от количества обрабатываемого продукта.

Варка

Набухший клей нужно варить около 15 минут на парной бане. Температурный режим должно составлять 60-80 градусов. В результате должна получиться однородная жидкая смесь без комков. Важно не нагревать массу на открытом огне и не доводить ее до кипения. Иначе белок, из которого сделаны гранулы, начнет деформироваться, при этом клеящая способность снизится. После образования на поверхности тонкой пленки можно использовать клейкую смесь.

Для увеличения устойчивости рабочего шва в клейкую смесь можно добавить олифу не больше 10 % от общей массы. Данный компонент позволяет увеличить устойчивость рабочего шва к воздействию влаги.

Для изготовления кожгалантерейных изделий в клейкую смесь рекомендуется добавлять глицерин. В готовую субстанцию добавляется 1 % глицерина.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ: (REFERENCES)

1. <https://32svarka.ru/metally-i-splavy/kostnyj-klej.html>
2. <https://armrinok.ru/obrabotka/kostyanoj-klej.html>
3. Отамуродов Ж. О. Техническая классификация сырья для производства прочного органического клея //Вестник науки. – 2022. – Т. 2. – №. 10 (55). – С. 124-130.
4. Урозов М. К., Отамуродов Ж. О. Получение технического прочного костного клея //Вестник науки. – 2022. – Т. 2. – №. 10 (55). – С. 144-151.

5. Urozov M., Otamurodov J. ПРЕИМУЩЕСТВА И НЕДОСТАТКИ ЖИВОТНЫХ И СИНТЕТИЧЕСКИХ КЛЕЕВ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. А7. – С. 513-517.
6. Хайитов А. А., Отамуродов Ж. О. ЭФФЕКТИВНОЕ ПРОВЕДЕНИЮ ПРОЦЕССА ДУБЛЕНИЯ И ЖИРОВАНИЯ КАРАКУЛЕВЫХ ШКУР В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ //Вестник науки. – 2021. – Т. 3. – №. 9 (42). – С. 45-50.
7. Отамуродов Ж., Урозов М. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРГАНИЧЕСКИХ КЛЕЕВ ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА КОЖГАЛАНТЕРЕЙНЫХ ИЗДЕЛИИ. – 2022.

HOKIMLARNI LAVOZIMIGA TAYINLASH VA UNDAN OZOD ETISH MASALALARI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL

Muxammadiyev Sindorbek Bobirjon o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

Elektron pochta: 1sindorlawyer99@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bugungi globallashuv jarayonida davlat boshqaruv sohasini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borish juda muhimdir. Bu borada mahalliy davlat boshqaruvi masalasi alohida o‘rin tutadi. UShbu maqolada O‘zbekistonda mahalliy davlat boshqaruvi bosh mansabdori bo‘lgan hokimlik institutining rivojlanish bosqichlari hamda ularni vazifasiga tayinlanishi va ozod etish masalalari, bu boradagi ilg‘or xorijiy mamlakatlar amaliyoti hamda ulardagi mavjud ustunliklarni milliy qonunchilikda qo‘llash bo‘yicha takliflar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: davlat boshqaruvi, mahalliy davlat boshqaruvi, ma’muriy islohot, mahalliy ijro hokimiyati, hokim, gubernator, burgomistr, akim, hokimlarni lavozimiga tayinlash, hokimlarni lavozimidan ozod etish. hokim faoliyatini baholash.

ISSUES OF APPOINTMENT AND RELIEVE OF GOVERNORS TO THE POST: COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

ABSTRACT

In today’s process of globalization, it is very important to develop the sphere of public administration in accordance with the requirements of the time. A special place in this issue is occupied by the issue of local government. This article will focus on the stages of development of the khokim institute, which is the main official of local

government in Uzbekistan, as well as on the issues of appointing and relieving them of their duties, on best foreign practices in this area and proposals for the application of their existing advantages in national legislation.

Key words: state administration, local public administration, administrative reform, local executive power, khokim, governor, burgomistre, akim, appointment of governors, relieve of governors. assessment of the activities of the governor.

Uzoq tarixiy davr mobaynida markaziy hokimiyat davlat boshqaruvi jarayonida mahalliy darajadagi davlat boshqaruvini tashkil etishga va hududiy boshqaruvni ushbu tizim orqali amalga oshirishga harakat qilib kelgan. Shuning uchun ham mahalliy ijro hokimiyati organi rahbarlari markaziy hokimiyatning joylardagi vakili sifatida ko‘rilgan. Ushbu prinsipdan kelib chiqilib ularning lavozimga tayinlanishi va undan ozod etilish masalalari markaziy hukumat tomonidan amalga oshirish tizimi ham shakllanib kelgan. Biroq vaqt o‘tgan sari odamlarning davlat boshqaruvi, xususan, mahalliy davlat boshqaruvi sohasidagi qarashlari o‘zgarib bordi. Endilikda mahalliy davlat boshqaruvi organlari, avvalo, markaziy hokimiyatning hududiy ko‘rinishi emas, balki aholining o‘zini o‘zi boshqarish tizimining ajralmas qismi degan tushunchalar shakllana boshladi. Mahalliy boshqaruvga tushunchasiga turli olimlar turlicha yondoshadilar. Masalan O.Turg‘unov “Mahalliy boshqaruv – davlatning hududiy birliklari negizida qonun hujjatlariga asosan tartibga solish faoliyati hisoblanib, mahalliy davlat hokimiyati vakillik va mahalliy ijro hokimiyati organlari tomonidan hudud manfaatlarini inobatga olgan holda olib boriladigan ijrochilik va farmoyish berish faoliyatidir”, - deb ta’rif bergan [1].

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab dunyoning ko‘plab mamlakatlarida mahalliy boshqaruv birinchi navbatda shu hududda istiqomat qiluvchi aholi vakillarining xohish-istaklarini ro‘yobga chiqaruvchi tuzilma sifatida eng birinchi navbatda ular oldida javobgar bo‘lishi lozimligi belgilab qo‘yila boshlandi. Bu o‘z esa

navbatida mahalliy boshqaruv organi rahbarlarining o‘z lavozimlarini egallashi va undan ozod etilishining yangicha tizimlari shakllanishiga olib keldi. Shu tariqa ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy davlat boshqaruvi rahbarlarini lavozimiga tayinlanishi va ozod etilishining yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatga aylanib bordi. O‘zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. Jumladan BMTning 2021-yil uchun O‘zbekiston bo‘yicha yillik xulosasida: “Mahalliy hukumat muxtoriyatga (avtonomiya) ega emas va ko‘p jihatdan markaziy hukumatga bog‘liqdir. Viloyat hokimlari amalda prezident tomonidan tayinlanadi, shu bilan birga mintaqaviy kengashlarga (Kengash) raislik qiladi. Natijada manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga keladi va mahalliy aholi oldida ularning javobgarligini pasaytiradi. Shunday qilib, mahalliy hukumat o‘zini fuqarolarga xizmat ko‘rsatuvchi ta’minotchi (provayder) emas, balki hudud ma’muri deb biladi” [2].

Shundan kelib chiqib, O‘zbekistonda 2017-yilning 8-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (PF-5185) farmon asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy islohotlar konsepsiyasida vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan kelgusida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va hokimlar faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazoratini ta’minlashga qaratilgan yangi tizim ishlab chiqish dolzarbligi keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, mahalliy ijro organlarining samaradorligiga erishish, bu yo‘nalishda ushbu organ rahbari sifatida hokimlarning o‘z lavozimlarini egallashlari va undan ozod etilish mexanizmini zamon talabiga mos ravishda isloh etish masalalari ham dolzarb vazifalardan biri ekanligi qayd etib o‘tish lozim. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilda qabul qilingan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”(PF-60)da ilgari surilgan islohotlar taklifi ahamiyatlidir. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ijro etuvchi hokimiyatni tom ma’noda xalqqa xizmat qiluvchi organga aylantirishni nazarda tutadi” [3].

Bugungi kunda O‘zbekistonda hokimlarni lavozimiga tayinlash va undan ozod etish masalasi amaldagi qonunchilikka ko‘ra ko‘ra prezident vakolatlari doirasiga kiritilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93,102-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 913-XII-sonli qonunning 2-moddasi prezident hokimlarni lavozimiga tayinlashi va undan ozod etishi belgilangan. Bu borada rivojlangan xorijiy mamlakatlar qonunchiligini o‘rganganimizda turli mamlakatlarda turlicha tizim mavjudligiga guvoh bo‘ldik. Jumladan, Germaniyada mahalliy davlat boshqaruvi sohasida o‘ziga xos kommunal tizimidan foydalaniladi.[4] Unga ko‘ra mahalliy darajadagi boshqaruv Kengash va Administratsiyaga beriladi. Kengashlar kollegial tartibda faoliyat yuritib, administratsiyaga bevosita yoxud bilvosita saylab qo‘yilgan burgomistr boshchilik qiladi.[5] Agar ularning faoliyatida noqonuniylik aniqlangudek bo‘lsa, fuqarolar burgomistrning iste‘fosini talab etishlari mumkin bo‘ladi. Bu holatda hududda referendum o‘tkaziladi va uning natijalari bo‘yicha burgomistrning keyingi faoliyati hal etiladi. Bu usul ancha keng tarqalgan bo‘lib, masalan Brandenburgda 1996-2005-yillar oralig‘ida 16 nafar burgomistr shu tariqa lavozimidan ozod etilgan. Bundan tashqari burgomistrning noqonuniy xatti-harakati yuzasidan sud ishi olib borilib, burgomistr sud qarori bilan ham lavozimidan ozod etilishi mumkin. [6] Yaponiyada mahalliy davlat boshqaruv tizimi 1947-yilda qabul qilingan Yaponiya konstitutsiyasi asosida amalga oshiriladi. Unga ko‘ra Yaponiya prefekturalari

(viloyat) gubernatorlar, shaharlar esa merlar tomonidan boshqariladi. Yaponiyada mavjud mahalliy davlat boshqaruvi tizimini samarali ishlashining sabablaridan biri bu hokimiyatlar bo‘linishi hamda bir-birini tiyib turish prinsiplarining yuqori darajada belgilab qo‘yilgani bilan ham bog‘liq. Masalan gubernatorlar ijro hokimiyati rahbari sifatida veto huquqiga egalar. Bu orqali ular mahalliy kengash tomonidan chiqarilgan normativ hujjatlarni to‘xtatib qo‘yishlari mumkin. Shuning bilan bir qatorda gubernatorlarda yakka-hokimlik hissi vujudga kelishini oldini olish maqsadida mahalliy kengashning har bir deputatiga maxsus vakolat berilgan bo‘lib, unga ko‘ra har bir deputat gubernatorga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish jarayonini boshlashi

mumkin. Biroq shuni ham ta’kidlash lozimki, gubernatorida o‘ziga ishonchsizlik votumi e’lon qilingan boshlab 10 kun muddat ichida mahalliy kengashlarni tarqatib yuborib, yangi saylovlarni boshlashi mumkin. Biroq basharti yangi saylangan mahalliy kengashning ilk majlisida yana ishonchsizlik votumi bildirilsa, gubernator 10 kun muddat ichida iste’fo berishi majburiy bo’ladi [7].

Shuningdek qo’shni mamlakat sifatida Qozog‘iston Respublikasidagi mavjud amaliyot ham biz uchun ahamiyatlidir. Qozog‘istonda mahalliy davlat boshqaruvida hududlarni boshqarish ijroiya hokimiyat rahbari – akimlarga yuklatilgan. Akimlarning o‘z lavozimlarini egallashi va undan ozod etilishining huquqiy asoslari esa Qozog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasi va “Qozog‘iston Respublikasining mahalliy davlat boshqaruvi va o‘z-o‘zini boshqarish to‘g‘risidagi qonuni” bilan tartibga solinadi. Qozog‘istonda mahalliy davlat hokimiyati sohasidagi ko‘zga ko‘ringan olimlardan biri Kemelbekov Adlet fikricha: “Aslida Qozog‘istonda mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishning alohida oganlari mavjud emas, ular bir vaqtning o‘zida davlat hokimiyatining eng quyi birligi hisoblanadi va asosan mahalliy aholini qiynayotgan muammolar bilan shug‘ullanib, ularning manfaatlari doirasida faoliyat yuritadi” [8]. Qozog‘iston Respublikasida ham mahalliy davlat hokimiyati rahbari hisoblanuvchi akimlarni lavozimiga tayinlash va undan ozod etish masalalari prezident vakolatlariga kiritish amaliyoti shakllangan. Biroq 2021-yilning may oyida mamlakat prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qayev amaldagi saylov va mahalliy boshqaruvga doir qonunchilikka o‘zgartirish kiritishga doir taklifni ilgari surdi. Unga ko‘ra endilikda eng quyi ma’muriy birliklar: tuman ahamiyatidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq okruglari va qishloqlarning akimlari xalq tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish orqali lavozimiga tayinlanishi belgilab qo‘yildi. Endilikda “Qozog‘iston Respublikasining mahalliy davlat boshqaruvi va o‘z-o‘zini boshqarish to‘g‘risida”gi qonuni 36-moddasiga ko‘ra:

- Tuman ahamiyatidagi shaharlar, shaharchalar, qishloq okruglari va qishloqlarning akimlari aholi tomonidan umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz

berish yo‘li orqali yashirin tarzda saylanadi. 25 yoshga to‘lgan Qozog‘iston Respublikasi fuqarolari akimlik lavozimiga saylanishlari mumkin.

- 1 shaxs surunkasiga 2 martada ortiq muddatga akimlik lavozimiga saylanishi mumkin emas. Akimlik muddati 4 yil.

Shuningdek, saylangan akimlarning o‘z lavozimidan ozod etilish asoslari ham qonunchilikda belgilangan bo‘lib, amaldagi akimning vafot etishi, respublika fuqaroligini yo‘qotishi, partiya a‘zolidan chetlashtirilishi, a‘zo bo‘lgan partiyasi tugatilishi va qonunda belgilangan boshqa hollarda ushbu jarayon sodir bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, mahalliy vakillik organi deputatlari tomonidan akimlarga ishonchsizlik votumi bildirilganda akimlar is‘tefoga chiqishi amaliyoti ham shakllangan. “Ushbu yangi tizim bo‘yicha akimlar mahalliy aholining ishonchini qozonishga, ularning fikr-mulohazalari bilan ish bolib borishga harakat qilishiga va shu orqali mahalliy aholining bevosita o‘zi yashab turgan hududini kompleks rivojlantirishda faol ishtirok etishiga imkon beruvchi muhitni yaratish mumkin deb hisoblaymiz”, -deb ta‘rif beradi Qozog‘iston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbari o‘rinbosari Malik Murzalin [9].

Mahalliy davlat hokimiyati hamda ularning rahbarlarini lavozimiga saylash va undan ozod etish masalasida xorijiy rivojlangan mamlakatlardagi mavjud amaliyot va qonunchilik o‘rganilganda ularda bir qancha ustun jihatlar mavjud ekanligini aniqladik. Bular qatorida: mahalliy davlat boshqaruv organi rahbarini mo‘z lavopzimiga saylab qo‘yish amaliyoti, ularni lavozimidan ozod etishda mahalliy vakillik organi deputatlarining irodasini namoyish etuvchi ishonchsizlik votumi bildirish kabi institutlarni keltirishimiz mumkin. Ushub ustun jihatlardan mamlakatimizda olib borilayotgan ma‘muriy islohotlar jarayonida milliy qonunchiligimizda belgilab qo‘yish lozim deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Mahalliy boshqaruv.Darslik.O.Turg‘unov va boshqalar.Toshkent.2017.13-14-betlar

2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yangilangan Umumiy Mamlakat Tahlili: O‘zbekiston. 2021-yil. uzbekistan.un.org
3. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Sh.Mirziyoyev. Toshkent. 2021. 88-bet.
4. «Опыт формирования органов местного самоуправления в зарубежных государствах». «Марийский юридический вестник» № 4(15)/2015. Кудрявцев Валентин Викторович. Аспирант кафедры конституционного и административного права Марийского государственного университета. г. Йошкар-ола.
5. Сравнительное исследование российской муниципальной избирательной системы и немецкой модели организации местных выборов. ГБОУ ВПО «Рязанский государственный университет им. С.А. Есенина». Е. А. Шапошникова. 2012.
6. Элс Д. Местное самоуправление в Германии // Гос-во и право. 2002. № 3. С. 70.
7. Местное самоуправление в Японии. А.П. Мельников.
8. Features of development of the institute of local self-governance in the republic of Kazakhstan. Kemelbekov Adlet. Post-graduate student of the department of legal support of state and municipal service of the Russian Presidential academy of National Economy and Public Administration. «Образование и Право» № 12. 2019.
9. [https://strategy2050.kz/ru/news2851@21560@\\$8/pryamyevybory-selskikh-akimov-minimizirovany-riski-vydv*izheni&ya-svoikh/91](https://strategy2050.kz/ru/news2851@21560@$8/pryamyevybory-selskikh-akimov-minimizirovany-riski-vydv*izheni&ya-svoikh/91)

TENGLAMA VA TENSIZLIKLARNI YECHISHDA O‘ZGARUVCHINI QUTB ALMASHTIRISHLARDAN FOYDALANISH

Jabborov Muxammadi Musurmon o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU Umumiy matematika kafedrası katta o‘qituvchisi

muxammadijm@mail.ru

Muhammadiyev Samariddin Boymurod o‘g‘li

Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

ANNOTATSIYA

Ayrim tenglama va tengsizliklarni elementar usullarda yechish ancha qiyinchilik tug‘diradi, yoki bu usullarda yechish imkonsiz bo‘ladi, bunday hollarda o‘zgaruvchini almashtirish usuli yordamida masalani sodda ko‘rinishga keltirish mumkin. Ushbu maqolada ayrim tenglama va tengsizliklarni o‘zgaruvchisini qutb koordinatalariga o‘tib yechish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tenglama, tengsizlik, qutb koordinatalari, burchak, masofa.

АННОТАЦИЯ

Некоторые уравнения и неравенства элементарными методами решить труднее, либо решить их этими методами невозможно, в таких случаях задачу можно упростить, используя метод замены переменных. В данной статье рассматривается решение некоторых уравнений и неравенств путем преобразования переменной в полярные координаты.

Ключевые слова: уравнение, неравенство, полярные координаты, угол, расстояние.

ABSTRACT

Some equations and inequalities are more difficult to solve by elementary methods, or it is impossible to solve them by these methods, in such cases the problem can be simplified using the change of variables method. This article discusses the solution of some equations and inequalities by converting a variable into polar coordinates.

Keywords: equation, inequality, polar coordinates, angle, distance.

Matematikani o'rganish davomida ko'plab masalalarni yechish tenglama yoki tengsizliklarga keltirilib shu tenglamaning yechimi qidiriladi. Matematikada tenglama va tengsizlarni yechishni ko'plab usullari mavjud bo'lib bunday usullardan matematika fanini o'rganish davomida ko'p marta foydalanamiz. Bazida shunday tenglama va tengsizliklar uchraydiki ularni yechish biroz qiyinlik tug'diradi. Bunday tenglama va tengsizliklarni yechish uchun biz matematikaning boshqa elementlaridan foydalanishimizga to'g'ri keladi.

Ushbu maqolada bir necha tenglama va tengsizliklarni yechishda qutb koordinalaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Tekislikda qutb koordinatalari quyidagicha kiritiladi: tekislikda O nuqta, OP nur va OP nurda yotuvchi $\overrightarrow{OE} = \vec{i}$ birlik vektorni belgilaymiz. hosil qilingan geometrik obraz qutb koordinatalari sistemasi deyiladi. Uni $(O, \vec{i})$ ko'rinishda belgilaymiz. O nuqta qutb boshi, OP nur qutb o'qi deyiladi. M nuqtaning tekislikdagi vaziyati ma'lum tartibda olingan ikki son: biri OE birlik kesma yordamida o'lchangan $\rho = |\overrightarrow{OM}| \geq 0$ masofa, ikkinchisi $\vec{i}$ nur $\overrightarrow{OM}$ nurning ustiga tushishi uchun surilishi kerak bo'lgan OP va OM vektorlar orasidagi φ burchak bilan to'la aniqlanadi. (ρ, φ) qutb koordinalaridan (x, y) dekart koordinalariga o'tish $x = \rho \cdot \cos \varphi$, $y = \rho \cdot \sin \varphi$ almashtirishlar orqali, aksincha, (x, y) dekart koordinalaridan (ρ, φ) qutb koordinalariga o'tish $\rho = \sqrt{x^2 + y^2}$, $\varphi = \arctg \frac{y}{x}$ almashtirishlar orqali bajariladi.

1-misol. $\begin{cases} x^2 + y^2 = r^2 \\ 4xy(2x^2 - r^2) = r^4 \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

Yechish: Sistemadagi birinchi tenglama aylana tenglamasi bo'lib, uning qutb koordinatalari $\begin{cases} x = r \cos \varphi \\ y = r \sin \varphi \end{cases}$ ko'rinishida aniqlanadi. Haqiqatdan, ko'rish mumkinki bu

almashtirishlar $\cos^2 \varphi + \sin^2 \varphi = 1$ ayniyatga ko'ra birinchi tenglamani qanoatlantiradi,

ya'ni $(r \cos \varphi)^2 + (r \sin \varphi)^2 = r^2 \Rightarrow \cos^2 \varphi + \sin^2 \varphi = 1$. Endi $\begin{cases} x = r \cos \varphi \\ y = r \sin \varphi \end{cases}$

almashtirishlarni ikkinchi tenglamada qo'llaymiz:

$$4xy(2x^2 - r^2) = r^4 \Rightarrow 4r \cos \varphi r \sin \varphi (2r^2 \cos^2 \varphi - r^2) = r^4 \Rightarrow 2r^4 \sin 2\varphi (2 \cos^2 \varphi - 1) = r^4$$

Bundan $2 \sin 2\varphi (2 \cos^2 \varphi - 1) = 1$ ga ega bo'lamiz. $2 \cos^2 \varphi - 1 = \cos 2\varphi$ va

$$2 \sin 2\varphi \cos 2\varphi = \sin 4\varphi \text{ ekanligidan, } 2 \sin 2\varphi \cos 2\varphi = 1 \Rightarrow \sin 4\varphi = 1 \quad 4\varphi = \frac{\pi}{2} + 2\pi n \quad n \in \mathbb{Z}$$

demak $\varphi = \frac{\pi}{8} + \frac{\pi n}{2} \Rightarrow \varphi_1 = \frac{\pi}{8}; \varphi_2 = \frac{5\pi}{8}; \varphi_3 = \frac{9\pi}{8}; \varphi_4 = \frac{13\pi}{8}$ ga ega bo'lamiz. $\begin{cases} x = r \cos \varphi \\ y = r \sin \varphi \end{cases}$

ekanligidan $\begin{cases} x_1 = r \cos \frac{\pi}{8} \\ y_1 = r \sin \frac{\pi}{8} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = \frac{r}{2} \sqrt{2 + \sqrt{2}} \\ y_1 = \frac{r}{2} \sqrt{2 - \sqrt{2}} \end{cases}$ har bir φ uchun bu tengliklarni bajarib

quyidagi yechimlarga ega bo'lamiz; $\left(\frac{r}{2} \sqrt{2 + \sqrt{2}}; \frac{r}{2} \sqrt{2 - \sqrt{2}} \right),$

$$\left(-\frac{r}{2} \sqrt{2 + \sqrt{2}}; -\frac{r}{2} \sqrt{2 - \sqrt{2}} \right), \left(-\frac{r}{2} \sqrt{2 - \sqrt{2}}; \frac{r}{2} \sqrt{2 + \sqrt{2}} \right), \left(\frac{r}{2} \sqrt{2 - \sqrt{2}}; -\frac{r}{2} \sqrt{2 + \sqrt{2}} \right)$$

2-misol. $\frac{4x^2 + 4y^2 + x^2 y^2}{x^4 + y^4 + 16} \geq 1$ tengsizlikni yeching.

Yechish: Yuqoridagi tengsizlikda $x = r \cdot \cos \varphi, y = r \cdot \sin \varphi$ almashtirishlarni amalga oshiramiz. U holda

$$\frac{4r^2(\cos^2 \varphi + \sin^2 \varphi) + r^4 \cos^2 \varphi \sin^2 \varphi - r^4(\cos^4 \varphi + \sin^4 \varphi) - 16}{r^4(\cos^4 \varphi + \sin^4 \varphi) + 16} \geq 0.$$

$$\sin^2 \varphi + \cos^2 \varphi = 1 \quad \text{dan} \quad \text{va} \quad 2\sin \varphi \cos \varphi = \sin 2\varphi \quad \text{dan} \quad \text{va} \quad (\sin^2 \varphi + \cos^2 \varphi)^2 = 1$$

$$\Rightarrow \sin^4 \varphi + 2\sin^2 \varphi \cos^2 \varphi + \cos^4 \varphi = \sin^4 \varphi + \cos^4 \varphi + 0,5\sin^2 2\varphi \quad \text{lardan}$$

$$\sin^4 \varphi + \cos^4 \varphi = 1 - 0,5\sin^2 2\varphi$$

Tengsizlikdagi kasrning maxraji r va φ ning har qanday qiymatlarida musbat qiymatlarni qabul qilganligi uchun $r^4(3\sin^2 2\varphi - 4) + 16r^2 - 64 \geq 0$ tengsizlikka ega bo'lamiz.

Bu tengsizlikning chap tomoni r ga nisbat bikvadrat ifodani tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, diskriminantni manfiy bo'lmasin deb olamiz.

$$D = 256 + 256(3\sin^2 2\varphi - 4) = 768(\sin^2 2\varphi - 1) = -768\cos^2 2\varphi \geq 0$$

Bu tengsizlik esa $\cos 2\varphi = 0$ (ya'ni $\sin^2 2\varphi = 1$) bo'lganda bajariladi. Bundan $2\varphi = \pm \frac{\pi}{2} + 2\pi \Rightarrow \varphi_1 = \frac{\pi}{4}; \varphi_2 = \frac{3\pi}{4}; \varphi_3 = \frac{5\pi}{4}; \varphi_4 = \frac{7\pi}{4}$.

Demak, $\sin^2 2\varphi = 1$ ni e'tiborga olsak, $-r^4 + 16r^2 - 16 \geq 0$ yoki $(r^2 - 8)^2 \leq 0$. Bundan $r = \pm 2\sqrt{2}$ kelib chiqadi. $x = r \cdot \cos \varphi$, $y = r \cdot \sin \varphi$ munosabatlardan (x, y) sonlar sifatida $(2\sqrt{2}; 2\sqrt{2})$, $(2\sqrt{2}; -2\sqrt{2})$, $(-2\sqrt{2}; 2\sqrt{2})$ va $(-2\sqrt{2}; -2\sqrt{2})$ larni olish mumkin.

Bu kabi misollardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning matematik tayyorgarligi oshishiga, balki fan ichidagi ichki aloqadorliklarni o'rnata bilish ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. А.Х.Шахмейстер. Иррациональные уравнения и неравенства. С-Петербург. Москва 2011.
2. А.С.Бортаковский, А.В.Пантелеев. Аналитическая геометрия в примерах и задачах. Москва 2005.
3. И.Ф.Шарыгина. Геометрические олимпиады, М.: МЦНМО, 2007. 152с.
4. Н.М.Седракан., А.М.Авоян. Неравенства. Метод доказательства. Москва. 2002.-256 с.
5. Е.Ю.Иванова. Тригонометрические уравнения и неравенства. МГУ Москва. 2008.

“АЛ-ЭЪТИМОД” АСАРИДА ИЙМОННИНГ ВОЖИБ БЎЛИШИ ВА УНИНГ МОҲИЯТИГА ОИД ҚАРАШЛАР ТАҲЛИЛИ

Маҳмудов Асрорхон Юсуфхонович

Ўзбекистон халқаро ислом

академияси магистранти

АННОТАЦИЯ

мақолада Абул-Баракот ан-Насафий “Ал-Эътимод” асарида иймоннинг вожиб бўлиши ва унинг моҳиятига оид қарашлар илмий таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Ал-Эътимод асари, иймон, қибла, аркон, вожиб амал, мўтазила.

Абул-Баракот ан-Насафий “Ал-Эътимод” асарида ўзидан олдинги муаллифлардан фарқли ўлароқ иймонга тааллуқли масалар мавзусини иймоннинг вожиблиги ҳақидаги фасл билан бошлайди. Бундай тартиб Шайх Абу Мансур ал-Мотуридийнинг “Тавҳид” китобида ҳам, Абул-Муъин ан-Насафийнинг илми каломга бағишланган асарларида ҳам кузатилмайди. Фақат, Нуриддин ас-Собуний ўзининг “Ал-Кифоя” асарида мана шу тартибга риоя қилганини истисно қилишимиз мумкин.

Абул-Баракот ан-Насафий иймоннинг вожиблиги ҳақидаги фаслни қибла аҳли орасида иттифоқ қилинган масала билан бошлаб, сўнг ўзаро ихтилофли жиҳатларга эътиборни қаратган ҳолда мавзунини баён қилишга киришади.

Муаллифнинг зикр қилишига кўра Аллоҳ таолога иймон келтириш (қибла аҳли орасида) яқдиллик ила фарз ва Уни инкор этиш харомдир. Лекин улар иймоннинг вожиблиги ақл биланми ёки самъ (яъни, пайғамбарнинг даъватини эшитиш) биланми, деган масалада ҳамда иймоннинг гўзаллиги, неъмат берувчи

зотга шукр қилишнинг яхшилиги ва куфрнинг қабихлиги ақл билан билинадими ёки йўқми, деган масалада ихтилоф қилишди¹¹.

Мулҳидлар, рофизийлар, мушаббиха ва хавориж тоифалари: “Ақл билан ҳеч нарса вожиб бўлмайди, иймоннинг гўзаллиги ва куфрнинг қабихлиги ҳам у билан билинмайди. Балки, бу фақатгина шариъат орқали билинади”, дейишди.

Мўътазилалар: “Ақл иймонни ва неъмат берувчи зотга шукр қилишни вожиб қилади, нарсаларнинг гўзаллиги айнан унинг ўзи билан билинади ва ҳукмлар халойиқнинг манфаати тақозо этадиган нарсага кўра собит бўлади”, дейдилар.

Бизнинг баъзи асҳобларимиз (яъни, мотуридийя таълимоти уламолари) айтдилар: “Ақл айрим нарсаларнинг гўзаллиги ва қабихлигини, иймон келтириш ва неъмат берувчи зотга шукр қилиш вожиблигини билиш хусусиятига эгадир”.

Бизнинг гапимиз билан мўътазилалар фикри орасидаги фарқ шуки, мўътазилалар, худди банда ўзининг феълларини ўзи пайдо қилувчидир, деб айтганларидек, ақлнинг ўзи мустақил равишда (иймонни ва шукрни) вожиб қилувчидир, дейдилар.

Бизнинг наздимизда ақл иймон ва шукрнинг вожиблигини билиш учун воситадир, вожиб қилувчи эса у Аллоҳ таолодир. Чунончи, пайғамбар иймон ва шукрнинг вожиблигини билдирувчи экани, вожиб қилувчи зот эса Аллоҳ таолонинг Ўзи бўлганидек. Лекин пайғамбар воситачи вазифасини бажаради.

Ақл сабабли иймоннинг вожиблиги Абу Ҳанифа (роҳимаҳуллоҳ)дан ривоят қилинган. Дарҳақиқат, Ҳоким аш-Шаҳид “Ал-Мунтақо”да Абу Ҳанифа (роҳимаҳуллоҳ)нинг куйидаги гапни айтганини зикр қилади: “Осмонлар ва Ернинг яратилганини, ўзи ва ўзидан бошқаларнинг яратилганини билатуриб, Яратувчисини билмасликда бирор кимса учун узр йўқдир”.

Ривоят қилинишича, Абу Ҳанифа (роҳимаҳуллоҳ) деди: “Агар Аллоҳ таоло бирор пайғамбарни юбормаганида ҳам халойиқ зиммасига У зотни ўз ақллари

¹¹ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 362-б.

билан танимоқлик вожиб бўлур эди”. Аҳли сунна вал-жамоадан бўлган машойихларимиз ҳам шу фикрдалар. Ҳатто, Шайх Абу Мансур Мотуридий (роҳимаҳуллоҳ) ақлли ёш бола ҳақида, Аллоҳ таолони танимоқлик унинг зиммасига вожиб бўлади, деганлар¹².

Мазкур гап Ироқ аҳлидан бўлган кўп машойихларнинг фикридир. Чунки балоғатга етган киши зиммасидаги вожиблик унинг ақли эътиборидандир. Агар ёш бола ҳам ақлли бўлса, зиммасига иймоннинг вожиб бўлишида худди балоғатга етган киши каби бўлади. Албатта, иккиси (яъни, ақлли ёш бола билан балоғатга етган киши) ўртасидаги тафовут фақатгина жуссанинг заиф ва кучлилигида холос. Рукнларни бажариш масаласида иккисининг фарқланишида ҳеч шубҳа йўқ. Лекин, қалбга тааллуқли бўлган ишда иккиси фарқланмайди.

Кўп машойихларимиз айтадилар: “Ёш бола зиммасига у балоғатга етишидан олдин ҳеч нарса вожиб бўлмайди. Бунга Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи ва салламнинг: **“Уч тоифа инсондан қалам кўтарилган: то эҳтилом бўлгунича (яъни балоғатга етгунича) ёш боладан...”**, деган сўзларининг умумийлиги далил бўлади.

Шайх Абу Мансур роҳимаҳуллоҳ юқоридаги ҳадиси шарифни шариъатнинг амалий масалаларига йўйганлар.

Ақлли ёш боланинг исломи саҳиҳ экани хусусида асҳобларимиз (яъни, мотуридийя таълимоти уламолари) орасида ҳеч қандай хилоф йўқ.

Имом Ашъарий айтди: “Ақл сабабли ҳеч нарса вожиб ҳам бўлмайди, ҳаром ҳам бўлмайди. Лекин, ақл орқали айрим нарсаларнинг гўзаллиги ва қабихлиги билиниши жоиздир”. У кишининг наздида таклиф (яъни, бандалар зиммасига илоҳий бурчларнинг юкланиши)га оид жамики ҳукмлар самъ (яъни, пайғамбарнинг даъватини эшитиш) орқали қабул қилингандир. Бунга Аллоҳ таолонинг: **“Токи бирор пайғамбар юбормагунимизча азоблагувчи бўлмадик” (Исро, 15)** ояти далил бўлади. Дарҳақиқат, Аллоҳ таоло бу оятда

¹² Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 364-б.

пайғамбар юбормасдан азоблашни инкор қилди. Агар феъл ақл орқали яхши ёки қабих бўлганида, гарчи пайғамбарлар мавжуд бўлмасда азоблашнинг воқе бўлиши лозим бўлиб қолар эди.¹³

Яна бир далил шуки, агар неъмат берувчига шукр қилиш ақлан вожиб бўлганида, албатта, у бирор фойда туфайли вожиб бўлар эди. Акс ҳолда бу беҳуда иш бўлиб қоларди, ҳолбуки, беҳуда иш қабоҳатдир. Фойда эса ё Яратувчига қайтиши керак, ваҳоланки, У фойдадан муназзах. Ёки фойда бандага қайтиши керак. Бандага фойданинг қайтиши эса дунёда ёки охиратда бўлади. Биринчиси (яъни, шукр келтиришнинг фойдаси бандага дунёда қайтиши) мумкин эмас. Чунки неъмат берувчига шукрни бажо келтиришнинг дунёдаги натижаси ҳеч бир фойдасиз жонни қийнашдир. Иккинчиси ҳам худди шундоқ (яъни, шукр келтиришнинг фойдаси бандага охиратда қайтишини ўйлаш ҳам имконсиздир). Зеро, ухровий мукофотни идрок этишга ақл учун бирор йўл йўқ.

Биз мотуридийлар айтамыз: “Неъмат берувчига шукр келтиришнинг фойдаси – шукр келтирмаслик тақдирига кўра юзага келадиган азоб эҳтимолидан омонда бўлиш. Зотан шукр келтирмаслик тақдирига кўра юзага келадиган азоб эҳтимоли бор ишдир. Ўзидан хавфни бартараф этиш энг улуг фойдалардандир. Қолаверса, биз вожибликдан, уни бажариш билан савобга, тарк этиш билан азобга лойиқ бўлинадиган ишни назарда тутмаяпмиз. Зеро, бу иккиси самъ (яъни, пайғамбарнинг даъватини эшитиш) орқали билинади. Балки, биз бу ўриндаги вожибликдан иймон келтиришнинг бир нав қувватли экани, ношукрликнинг бир нав хатарли экани ақлда собит бўлишини назарда тутаяпмиз. Шу даражадаки, ақл у иккиси борасида (яъни, иймон ва ношукрлик борасида) тарк этиш ҳам бажариш ҳам баробар эканига ҳукм қилмайди, балки, иймон келтириш бир нав мақтовни тақозо этишига, иймонни тарк қилиш бир нав ёмонловни тақозо этишига ҳукм қилади”.¹⁴

¹³ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 366-б

¹⁴ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 367-б

Абул-Баракот ан-Насафий иймоннинг моҳияти борасидаги фикрларини “иймон” сўзининг луғавий маъносини таҳлил қилиш билан бошлайди. Унинг луғавий маънолари ичида луғатшунос олимлар томонидан бир овоздан яқдиллик ила қабул қилинган “тасдиқлаш” маъносини зикр қилиб, унга Қуръон оятидан бир мисол келтиради. Сўнг иймоннинг калом илмидаги истилоҳий маъносини унинг мазкур луғавий маъноси билан боғлаган ҳолда очиб беришга ҳаракат қилади. Абул-Баракот ан-Насафий иймон таърифида Абу Ҳанифа роҳимаҳуллоҳдан ривоят қилинган ва Абу Мансур ал-Мотуридий ихтиёр этган фикрга мойил эканини очиқ баён қилади. Сўнг иймон таърифидаги ихтилофли қарашларни зикр қилиб, бу масалада мотуридийлар маслаки тўғри ва устун эканига бир қанча далил ва ҳужжатларни келтириб ўтади.

Муаллиф таъкидлашича “иймон” сўзи луғатда “тасдиқлаш” маъносини билдиради. Аллоҳ таоло Юсуф алайҳиссаломнинг акалари ҳақида хабар бериб айтган: **“Гарчи биз ростгўй бўлсакда, сиз бизга ишонувчи (яъни, бизни тасдиқловчи) эмассиз”** (*Юсуф, 17*)¹⁵. Сўнг, ушбу қалб билан тасдиқлашдан иборат луғавий маъно Аллоҳ таоло учун банда зиммасига қатъий равишда вожиб бўлувчи иймон бўлиб, у (яъни, иймон) Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламни у зот Аллоҳ таолонинг ҳузуридан келтирган хабарларда тасдиқлашдир. Зеро, иймонга берилган ушбу таърифда тасдиқлаш вожиб бўладиган барча ҳақиқатларни тасдиқ қилиш мужассамдир. Бас, унда Аллоҳга, Унинг фаришталарига, китобларига, пайғамбарларига, Охират кунига ва батафсил равишда иймон келтириш вожиб бўладиган барча ҳақиқатларга иймон келтириш бордир.¹⁶

Демак, кимки Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламни у зот Аллоҳ таолонинг ҳузуридан олиб келган хабарларда тасдиқласа, у инсон ўзи билан Аллоҳ таолонинг орасида мўминдир. Иқрор эса Ислом ҳукмларини жорий қилиш учун қўйилган шарт ҳисобланади. Бу гап Абу Ҳанифа роҳимаҳуллоҳдан ривоят

¹⁵ Алоуддин Мансур. Қуръони Каримнинг ўзбек тилидаги изоҳли таржимаси –Т.: Шарқ, 1992.

¹⁶ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 370-б

қилинган бўлиб, Шайх Абу Мансур ал-Мотуридий (роҳимахуллоҳ) ҳам шу фикрга юрган ва бу гап Имом Ашъарий (роҳимахуллоҳ)дан қилинган икки ривоятнинг саҳиҳроғидир.

Бунинг далили шуки, иймон куфрнинг зиддидир. “Куфр”нинг маъноси “ёлғонга чиқариш”, “инкор этиш” бўлиб, бу иккиси қалбда бўлади. Шундай экан, иккисининг зидди бўлган нарса (яъни иймон) ҳам ана шундоқ бўлиши керак. Чунки икки қарама-қарши тушунчаларнинг ўрни бошқа-бошқа бўлган пайтда иккиси орасида ўзаро зиддият йўқ бўлиб қолади. Шунинг учун Аллоҳ таоло куфрни иймонга муқобил қўйиб айтди: **“Ким тоғутга куфр келтирса ва Аллоҳга иймон келтирса, дарҳақиқат, у энг мустаҳкам тутқични ушлабди”** (Бақара, 256).¹⁷ Куфрдан мурод ёлғонга чиқариш, иймондан мурод тасдиқлашдир, бундан бошқа эмас. Бу эса иймон юқорида зикр қилинган маънода эканига далолат қилади.

Тил аҳлининг наздида иймон “тасдиқ”дан иборат экани собит бўлгач, кимки уни “маърифат” учун ном деб ҳисобласа, ҳақиқатда, у бир сўзни луғат жиҳатидан англашилган маъносидан бошқа маънога буриб юборган бўлади. Агар ана шу иш жоиз бўлганида, луғатдаги барча сўзларда бу иш жоиз бўлар эди. Ваҳоланки, бундай йўл тутишда луғатларни бекор қилиш ва самъий далолатларга эришишни йўққа чиқариш бор.

Бу билан Жаҳм ибн Сафвоннинг: “Албатта, иймон у маърифат (яъни, танимоқ)дир”, деган гапининг ботиллиги маълум бўлади. Аллоҳ таолонинг: **“Биз уларга Китоб ато этган кишилар у зотни (яъни, Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васалламни) худди ўғилларини таниганларидек танийдилар”** (Бақара, 146) оятига биноан аҳли китоблар Набий соллаллоҳу алайҳи васалламни таниганликлари, ҳолбуки, тасдиқламаганликлари туфайли мўмин бўлмаганликлари ҳам фикримизни тасдиқлайди.¹⁸

¹⁷ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар. Шайх Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети нашриёти. 2006.

¹⁸ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 372-б.

Шунингдек, Абдуллоҳ ибн Саъид ал-Қаттоннинг: “Иймон у иқрордир, лекин қалб билан таниш ва тасдиқлаш шарти билан”, деган гапининг ботиллиги ҳам маълум бўлди. Аллоҳ таолонинг: **“...магар қалби иймон билан хотиржам бўлгани ҳолда мажбурланган киши бундан мустасно”** (*Наҳл, 106*) ояти иймоннинг ўрни тил эмас, қалб эканига далолат қилади.

Аҳли ҳадислар айтганидек амаллар иймондан бир бўлак эмас. Бу (яъни, амаллар иймоннинг бир бўлаги, деган) гап Молик, Авзоъий, аҳли зоҳир, Аҳмад ибн Ҳанбал роҳимаҳумуллоҳлардан ҳикоя қилинади. Чунки улар: “Иймон – у қалб билан тасдиқлаш, тил билан иқрор қилиш ва рукнларга амал қилиш”, деганлар.

Мўътазилалар наздида иймон жамики тоатларнинг номидир.

Имом Фаҳриддин ар-Розий: “Амаллар иймон тушунчасидан ташқаридаги ишлардир”, деган.

Амаллар иймон номи остига кирувчидир, дегувчилар ихтилоф қилишди. Имом Шофий роҳимаҳуллоҳ: “Фосиқлик иймондан чиқармайди”, деганлар.

Аммо, мўътазила ва хаворижларга келсак, уларнинг қондаси узвийдир. Чунки улар: “Фосиқ иймондан чиқади”, дейишади. Сўнг, ана шундан кейин мўътазила ва хаворижлар ҳам ўзаро ихтилоф қилишди. Мўътазилалар айтди: “Албатта, фосиқ иймондан чиқади, лекин куфрга кирмайди. У икки манзила (яъни, иймон ва куфр) орасида бўлади”. Хаворижлар деди: “Албатта, фосиқ куфрга киради”.

Биз мотуридийларнинг далилимиз шуки, Қуръони каримнинг бир қанча ўринларида амаллар иймонга боғловчи орқали атф қилиб келтирилган. Аллоҳ таоло айтади: **“Шундай зотларки, улар ғайбга иймон келтирадилар, намозни қоим қиладилар ва Биз уларга ризқ қилиб берган нарсалардан инфоқ-эхсон қиладилар”** (*Бақара, 3*). **“Албатта, Аллоҳнинг масжидларини Аллоҳга ва Охират кунига иймон келтирган, намозни қоим қилган ва закотни берган ... зотларгина обод қиладилар”** (*Тавба, 18*). **“Албатта, иймон келтирган ва солиҳ амалларни қилган зотлар...”** (*Буруж, 11*). Маътуф маътуфун алайҳдан

бошқа бўлади. Яна бир далилимиз шуки, иймон амалларнинг саҳиҳ бўлиши учун шартдир. Аллоҳ таоло: **“Ким мўмин бўлган ҳолида солиҳ амалларни қилса...”** (*Тоҳо, 112*) деган. Шарт ва маршрут ўзаро бошқа-бошқа нарсалар бўлади. Аллоҳ таоло айтган: **“... ва ораларингизни ислоҳ қилингиз. Агар мўмин бўлсангизлар, Аллоҳ ва Унинг Расулига итоат этингиз”** (*Анфол, 1*). Агар иймон саҳобалар наздида маълум иш бўлмаганида, бу бефойда шарт бўлиб қолар эди.

Дарҳақиқат, Аллоҳ таоло иймон номи билан хитоб қилди, сўнг амалларни вожиб қилди. Бас, айтди: **“Эй иймон келтирганлар, сизларга рўза тутиш фарз қилинди”** (*Бақара, 183*). Бу ҳолат амал иймондан бошқа эканига ва иймон номи тасдиқнинг ўзига чегараланишига далилдир. Шунинг учун Аллоҳ таолонинг душманлари азобни ва умидсизликни ўз кўзлари билан кўрган пайтларида бошқа амалларга эмас, айнан тасдиққа шошилдилар. Фиръавнга ғарқ етганида у: **“Бану Исроил иймон келтирган Зотдан бошқа илоҳ йўқлигига иймон келтирдим ва мен мусулмонлардандирман”**, (*Юнус, 90*)¹⁹ деган.²⁰

Юқорида келтирилган далиллар ва фикр-мулоҳазалардан шуни хулоса қилиш мумкинки, иймоннинг моҳияти тасдиқдан иборат экан. Бу эса айнан қалбнинг тасдиқи банданинг Охиратдаги нажотига – қачондир албатта жаннатга киришига ва Дўзахда мангу қолмаслигига сабаб бўлишини ифода этади. Тил билан бўладиган иқрор эса унинг бу дунё ҳаётида мусулмон сифатида эътироф этилиши учун шарт ўлароқ эътиборга олинади. Арконларни бажариш, солиҳ амаллар қилиш ва гуноҳлардан сақланиш иймоннинг рукни ҳам, шарти ҳам ҳисобланмаса-да, улар иймоннинг самараси бўлиб, унинг нури зиёда бўлишида, банданинг Дўзах азобидан қутулиб қолиши ва Жаннатдаги юксак мақомларга ноил бўлишида муҳим аҳамият касб этади.

¹⁹ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар. Шайх Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети нашриёти. 2006.

²⁰ Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътикод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 375-6.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 362-б.
2. Алоуддин Мансур. Қуръони Каримнинг ўзбек тилидаги изоҳли таржимаси – Т.: Шарқ, 1992.
3. Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 370-б
4. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Таржима ва изоҳлар. Шайх Абдулазиз Мансур. –Т.: Тошкент ислом университети нашриёти. 2006.
5. Абул-Баракот ан-Насафий. Ал-Иътимод фил-иътиқод. Дор ал-кутуб ал-мисрийя. –Қоҳира: ал-Мактаба ал-азҳарийя лит-турос. 2012. 372-б.



TO‘R TENGLAMALARINI YECHISH METODLARI

Toshboyev Abdulakim Kamol O‘g‘li

Termiz Davlat Universiteti magistratura bo‘limi Amaliy matematika va Axborot texnologiyalari Mutaxassisligi 2–kurs magistranti

Tursunov Javohirbek Abdurasulovich

Termiz Davlat Universiteti magistratura bo‘limi Amaliy matematika va Axborot texnologiyalari Mutaxassisligi 2–kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Puasson tenglamasi uchun Dirixle masalasini yechishga mo‘ljallangan to‘g‘ridan-to‘g‘ti va itersiya (ketna-ket yaqinlashishlar) metodlari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: To‘r, Elliptik tenglamalar, Approksimatsiya, differensial tenglamalar, xos qiymat, algebraik tenglamalar sistemasi, Puasson tenglamasi, xos vektor.

ABSTRACT

This article describes the direct and iterative (successive approximations) methods for solving the Dirichlet problem for the Poisson equation.

Key words: Grid, Elliptic equations, Approximation, differential equations, eigenvalue, system of algebraic equations, Poisson's equation, eigenvector.

To‘g‘ri metodlar

Elliptik tenglamalar chegaraviy masalalarni ayirmali approksimasiyalashga chiziqli algebraik tenglamalar sistemasi xosil bo‘ladi. Ushbu sistemaning A matrisasi yuqori tartibli bo‘lib, uning tartibi to‘rning tugunlari soni N ga teng bo‘ladi. Masalan,

xar bir $x_1, x_2, \dots, x_p$ ($h_1 = h_2 = \dots = h_p = h$) o'zgaruvchilar bo'yicha h qadamga ega bo'lgan to'r uchun to'rning umumiy tugunlari soni $N = O(\frac{1}{h^p})$ ga teng bo'ladi, buyerda p – o'lchamlar soni. Ikki va uch o'lchamli masalalar uchun tenglamalar soni juda ko'p bo'ladi, $N \approx 10^4 - 10^6$ (masalan, $h = \frac{1}{100}$ bo'lgan holda). Bundan tashqari, sistema matrissasi ko'pgina nol elementlarga ega, maxsus (lenta simon) strukturaga ega bo'lgan tarqoq matrissadan iborat bo'ladi va nihoyat, Sistema matrissasi yomon tartiblangan bo'ladi, ya'ni, matrissaning eng katta xos qiymatining eng kichik xos qiymatiga nisbati juda ham katta $\sim 10^3 - 10^4$ bo'ladi va u $O(h^{-2})$ tartibli miqdorni tashkil etadi.

Ushbu maxsusliklar sababli, eleptik to'r tenglamalarining sonli yechishga mo'ljallangan maxsus samarali algoritmlarni ishlab chiqish talab qilinadi.

Bunday sistemalarni to'g'ridan – to'g'ri yechishga mo'ljallangan metodlardan, odatda o'ta tor doiradagi, amma, juda muxim to'r tenglamalari sinfini yechishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari to'g'ri metodlardan, iterassiya metodlari yuqori qatlamidan operatorning teskarisini topishda foydalanish mumkin, u mos ravishda tanlab olinadi.

Hozirgi kunda Puasson tenglamasi uchun ayirmali chegaraviy masalalarni dekart, qutib, silindirik va sferik kordinatolar sistemasida yechishga mo'ljallangan ikkita to'g'ri metodlar mavjud. Ulardan biri – dekompozitsiya metodi yoki toq – juft yo'qotish usuli faktorizasiyaga asoslangan bo'lib, Gauss yo'qotish usuling modifikatsiyasidan iborat.

O'zgaruvchilarni ajratishga asoslangan to'g'ri metodlardan yana biri Fur'ening tez almashtirish algoritmgiga asoslangan metoddan iborat.

Har ikkala metodlar uchun ikki o'lchovli masala yechimini topish mo'ljallangan arifmetik amallar soni Q quydagicha aniqlanadi.

$$Q = O(N^2 \log_2 N)$$

Bu yerda N – bitta yo'nalish bo'yicha tugunlar soni.

Yuqorida ta’kidlangan, ikkita metodlardan tashqari yana bitta to‘g‘ri metod mavjud: bu matrissali progonka metodidir. Ushbu metod ayirmali elliptik tenglamalarni murakkab formadagi sohalar uchun yechishda yaroqli bo‘lib hisoblanadi. Ammo, matrissali progonka metodi ayirmali eliptik tenglamalarni yechishda $O(N^4)$ arifmetik amal talab etadi va oraliq natijalarni saqlash uchun juda katta hajmdagi kompyuter xotirasini talab qiladi. Ayni paytda elliptik ayirmali tenglamalarni turli o‘ng tomondagi ifodalar va turli chegaraviy shartlar bilan yechishning seriyali hisoblashlarini olib borishda progonkali matrisalarni saxlab qo‘yish xamda xar safar ushbu matrisalardan foydalanish orqali arifmetik amallar sonini ikkinchi va undan keying seriyada olib boriladigan xisoblashlar uchun $O(N^3)$ gacha kamaytirishi mumkin.

Ketma – ket yaqinlashishlarga asoslangan itersiya metodi ixtiyoriy murakkablikdagi soxalarda yanada umumiyroq xolatlarda qo‘llanilishi mumkin.

To‘g‘ri (bevosita) yechish metodlarini chegaraga ega bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakli soxada

$$\bar{G} = \{0 \leq x_\alpha \leq l_\alpha, \alpha = 1, 2\}$$

Puasson tenglamasi uchun Direxle masalasini yechishga nisbatan qarab chiqamiz:

$$\Delta u = \Delta u = \frac{\partial^2 u}{\partial x_1^2} + \frac{\partial^2 u}{\partial x_2^2} = -f(x), \quad x = (x_1, x_2) \in G, \quad u|_\Gamma = \mu(x). \quad (1)$$

$G = \bar{G} + \Gamma$ soxada h_1 va h_2 qadamlar bilan to‘g‘ri to‘rtburchakli to‘r kiritamiz:

$$\omega_h = \{x_{i_1 i_2} = (i_1 h_1, i_2 h_2) \in \bar{G}, i_\alpha = 0, 1, 2, \dots, N_\alpha, h_\alpha N_\alpha = l_\alpha, \alpha = 1, 2\}$$

To‘r soxasi chegarasini γ_h orqali belgilaymiz:

$$\gamma_h = \{x_{i_1 i_2} \in \Gamma\}.$$

Puasson tenglamasi uchun Dirixle masalasi (1) ga mos ayirmali Dirixle masalasini qo‘yamiz.

$$\Lambda y = -f(x), x \in \omega_h, y|_{\gamma_h} = \mu(x) \quad (2)$$

$$\text{bu yerda } \Lambda = \Lambda_1 + \Lambda_2, \Lambda_\alpha y = y_{x_\alpha x_\alpha}, \alpha = 1, 2, \quad y_{i_1 i_2} = y(i_1 h_1, i_2 h_2)$$

$$\Lambda_1 y_{i_1 i_2} = \frac{y(i_1 - 1, i_2) - 2y(i_1, i_2) + y(i_1 + 1, i_2)}{h_1^2},$$

$$\Lambda_2 y_{i_1 i_2} = \frac{y(i_2 - 1, i_1) - 2y(i_1, i_2) + y(i_1, i_2 + 1)}{h_2^2}$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Самарский А.А., Николаев В.С. Математическое моделирование. М. Наука, 2017-450с.
2. Исроилов М. Ҳисоблаш методлари. Тошкент, «Ўқитувчи», 2005.
3. Самарский А.А. Теория разросных схемю- М. Наука, 1989.-432с.
4. <http://www.aim.uz>:
5. <http://www.arxiv.uz>
6. <http://www.techno.edu.ru>

ĞAWASHA SORTLARÍNDÁ 1000 DANA SHIGIT AWIRLIĞÍ HÁM BIR GÓREKTEGI ÓNIMDI SALISTIRIW

Djarasov Aydos Djarasovich

Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar institutı

1 – kurs magistrantı

E-mail: djay26912@gmail.com

Seytmusaev Abat Idirisovich

Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar institutı

a.x.i.k docent

ANNOTACIYA

Biz maqalamızda ğawasha sortlarında mıń dana shigit awırlıǵın hám de bir górektegi ónimdi arnawlı tárezi járdeminde ólshep alamız. Shıqqan nátiyjeler arqalı usı belgiler menen ğawasha sortların ózara salıstıramız.

Gilt sózler: ğawasha sortları, górek, shigit, arnawlı tárezi, labaratoriya xanası hám taǵı basqa.

COMPARISON OF THE WEIGHT OF 1000 COTTON SEED AND THE YIELD PER UNRÍPE COTTON BELL IN COTTON SORTS

ABSTRACT

In this article, we will measure the weight of 1000 cotton seeds and the yield of one unripe cotton bell in cotton through using a special scale. Based on the obtain results, we will compare cotton sorts with these characters.

Key words: the sorts of cotton, unripe cotton bell, cotton seed, special scale, laboratory room etc.

Mámleketimizde xalq sanınıń artıp barıwı menen sheklengen resurslardan maqsetke muwapiq paydalanıw hámde xalqı azıq-awqat ónimleri menen tolıq

táminlew ushın awıl xojalıǵı xızmetkerleri eginlerdiń jańa sortların jaratıw hámde diyxansılıqtı bunnan bilayda rawajlandırıwǵa tuwrı kelmekte. Házirgi zaman awıl xojalıǵı sortlarına jańa talaplar qoymaқта. Bizge belgili bolǵanıday selekciya

jetiskenlikleri arqalı awıl xojalıǵı eginleriniń ónimdarlıǵın 30 % asırıwǵa boladı. 15 % ónimdarlıq jaqsı agrotexnikaǵa hám 15% bolsa tuqımershilik jumıslarına baylanıslı eken.

Mámleketimizde awıl xojalıǵın, solardan ǵawasha selekciyası hám tuqımershiliginiń jetilisiwi, onıń rawajlanıwında 1996-jıl 29-avgusttaǵı «Tuqımershilik haqqında»ǵı, 1996-jıl 30-avgusttaǵı «Selekciya jetiskenlikleri haqqında»ǵı Ózbekstan Respublikası nızamlarınıń baspa sözde jariyalanıwı hám ámelge engiziliwi úlken áhmiyetke iye. Seleksiya jumıslarında bolsa sort jaratıw ushın baslanǵısh materialdı jaqsı tańlaw úlken áhmiyetke iye. Jaratılǵan sort bolsa jergilikli klimat sharayatqa maslasqan hám joqarı zúraátli bolıwı kerek.

Sol tiykarda tájriybemizdiń maqseti ǵawasha sortların jaratıw ushın qimbat bahalı baslanǵısh material tańlaw esaplanadı. Usı maqsetke erisiw ushın bolsa aldımızǵa tómendegi wazıypalardı qoydıq.

- Ǵawasha sortlarında xojalıq bahalı belgilerin anıqlaw
- Anıqlanǵan nátiyjelerdi hár bir sortta óz-ara salıstırıp úyren

Izzertlew usılı-labaratoriya usılı. Tájiriyyede ǵawashanıń C-4727, T-1805, Mańǵıt-1, Ravnaq-1, Sultan, Shımbay-5018 sortları úyrenildi. . Atız usilinda tájriybeler Qaraqalpaqstan Respublikası Oraylıq rayonlarınıń biri Nókis rayonu aymaǵında (Ózbekstan Respublikası Prezidenti janındaǵı Aral boyı xalıqaralıq innovaciya orayı) ótkerildi. Tájriybe maydanı ortasha dárejede shorlanǵan, jer astı izey suwları 1,70 – 2 m tereńlikte jaylasqan. Labaratoriyalıq tájriybeler bolsa Qaraqalpaqstan awıl xojalıǵı hám agrotexnologiyalar instituti labaratoriya xanasında ótkerildi.

Izzertlew nátiyjeleri sonı kórsetti: mın dana shigit awırlıǵı boyınsha C – 4727 hám T - 1805 sortlarında shigit awırlıǵı bir qansha joqarı (109,1 – 104,9), eń tómen kórsetkish bolsa Mańǵıt – 1 hám Rabnaq – 1 sortlarına tiyisli boldı (99,01-100,8), qalǵan Shımbay-5018 hám Sultan sortları ortasha kórsetkishti kórsetti (101,1-101,9).

Bir túptegi górek ónimi boyınsha sortlar 4 terimde ólshendi hám olardıń ortasha kórsetkishi alındı. Buǵan kóre eń joqarı awırlıqqa iye T-1805 hám Rabnaq-1 sortları boldı (6,42-6,21), eń tómen kórsetkishti C-4727 hám Sultan sortları kórsetti (5,73-5,81). Mańǵıt-1 hám Shımbay-5018 sortları ortasha kórsetkishke iye boldı (6,03-5,87).

Juwmaqlap aytqanda, mın dana tuqım awırlıǵı boyınsha C-4727 hám T-1805 sortları bir qansha joqarı awırlıqqa iye, bir górektegi ónim boyınsha T-1805 hám Rabnaq-1 sortları jaqsı nátiyjege iye boldı. Bul bolsa joqarıdaǵı sortlar ústinde ótkeriletuǵın tájiriybeler unamlı nátiyjeler beretuǵınlıǵın kórsetedi.

PAYDALANÍLGAN ÁDEBIYATLAR: (REFERENCES)

1. Орипов Р, Остонов С. Пахтачилик. Самарканд. 2005.
2. Ismaylov U.E. Diyqanshılıq ilim izertlew tiykarları menen. NÓKIS.

«BILIM». 2015.

Internet materialları

www.ziyonet.uz

www.edu.uz.

www.agro.uz



UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING TAFAKKURINI YUKSALTIRADIGAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK MASHQ VA TRENINGLAR

Umirov Almardon Olmamatovich

Surxondaryo viloyati Uzun tumanidagi

41-maktabning psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumta'lim psixologlari tomonidan o'quvchilar bilan o'tkaziladigan psixologik mashq va treninglar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Psixologik, guruh, o'quvchi, davra, o'yin, suhbat, maktab, erkinlik, munosabat.

Treningning asosiy maqsadi – shaxsni psixologik ozod qilish, bunda tabiiy erkinlikni his etishni, o'z guruhida va undan tashqarida o'zaro munosabat va aloqa o'rnatishdan iborat. Har qanday psixologik treninglarni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Guruhni tashkil etish yoki yig'ish bosqichi.
2. Boshlang'ich bosqich.
3. Ishni olib borish bosqichi.
4. Yakunlash bosqichi.

Eng muhimi guruhni tashkil etish bosqichi bo'lib, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak:

- Har qanday treningda (faqat nogironlar bilan o'tkaziladigan maxsus treninglarni hisobga olmaganda) tashqi jismoniy defektga ega bo'lgan yoki psixik holatida buzilishlar bo'lgan kishilar ishtirok etmasligi lozim. Negaki, bunday holatlarda aynan

ana shunday kamchilika ega bo‘lganlarda aks ta’sir bo‘lishi ehtimoli kuchliroqligi har qanday mutaxassis uchun tashunarli bo‘lsa kerak;

- guruh a’zolarining soni 8 tadan 12 tagacha bo‘lgani ma’qul;

- ishtirokchilarning yoshi iloji boricha taxminan teng bo‘lishi, ya’ni ular orasidagi farq 4-5 yoshni tashkil etishi mumkin;

- ishtirokchilar orasida ayol va erkaklar soni imkoni boricha teng bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari yana quyidagilarga ham e’tibor berish lozim bo‘ladi:

Treningda muammosi bir xil bo‘lgan odamlarni to‘plash kerak. Trening ishtirokchilari iloji boricha bir-biriga notanish bo‘lishlari lozim. Trening o‘tkaziladigan xona albatta izolyatsiyalangan bo‘lishi shart, ya’ni hech kim ularni bezovta qilishi mumkin emas va ular ham boshqalarga xalaqit bermasliklari kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda umumta’lim muassasalari o‘quvchilari bilan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan psixologik mashq va treninglarni ko‘rib chiqamiz.

“Intervyu” – mazkur trening o‘quvchilar bir-biri bilan tanishishi va boshqalarni eshitishga o‘rgatadi. Guruhlarni juftlarga bo‘lish kerak. Har bir bola yonida o‘tirgan o‘rtog‘iga o‘zi haqida gapirib beradi. Gapirayotgan odamning gapini bo‘lmasdan uning hikoyasini diqqat bilan eshitish kerak. Hikoya 5 daqiqadan oshmasligi lozim. Psixolog vaqtni nazorat qiladi. Barcha diqqat bilan eshitishni o‘rganganidan keyin guruh birga yig‘iladi. Har bir bola o‘zining hamrohini tanishtiradi, eslab qolganlarni aytib beradi.

“Men bu” (30 daqiqa) – bu o‘yin bolalar o‘rtasida ishonchli muhit paydo bo‘lgandan keyin o‘tkaziladi. Bu treningni o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad shuki, bolalar bir-birlarini yaqindan taniydilar, o‘zlari haqida gapirib berishlari uchun yordam beriladi. Hamma bolalarga qog‘oz va ruchka tarqatiladi. Har bir bola 5 daqiqa davomida o‘zini ta’riflovchi 10 ta so‘z yoki jumla yozadi. O‘zining tavsifini har bir bola qog‘ozga yozib, ko‘kragiga qadab oladi. Ma’lum vaqt o‘tib, bolalar ayvonchada aylanib, bir-birlari haqidagi tavsiflarni o‘qiy boshlaydi. Hamma o‘qib bo‘lgandan keyin, davra qurib o‘tiradilar, kim nimani eslab qolsa, hayratga solgan, kuldigan bo‘lsa shularni muhokama qiladi.

“Koptok” (5 daqiqa) – bolalar ismini eslab qolish va guruhdagi bezovtalikni tarqatish maqsadida mazkur trening o‘tkaziladi. Mazkur treningda asosiy material sifatida koptokdan foydalaniladi. Hamma bolalar davra qurib o‘tiradilar. Psixolog biror bolaga koptok otadi, bunda u o‘zini va koptokni otgan bolaning ismini aytadi. O‘yin ishtirokchilari bir-birlarining ismlarini qayta-qayta so‘rab eslab qolgunlaricha va koptokni tez-tez oshirgunlaricha davom etadi.

“Men o‘zimni yaxshi ko‘raman, chunki men” – mazkur treningdan ko‘zlangan maqsad, o‘quvchilarning o‘zini – o‘zi ijobiy baholashni shakllantirish. Hamma doira shaklida o‘tirib, o‘zining eng ijobiy xislatlarini aytadi. Sarflanadigan vaqt 20 daqiqani tashkil etadi. “O‘ziga o‘zi xat yozish” – o‘quvchilarning o‘zlariga adekvat ya’ni to‘g‘ri munosabatni shakllantirish. Ishtirokchi o‘ziga o‘zi xat yozadi. Unda o‘zidagi mavjud ijobiy munosabatlar bitilgan bo‘ladi. Har bir xat o‘qib eshittiriladi va muhokama qilinadi. Sarflanadigan vaqt 40 daqiqa.

“Avtobusda” – o‘quvchilarda muomala madaniyatini shakllantirish, shaxslararo munosabatlarni ijobiy rivojlantirish. Ishtirokchilardan biri avtobusdagi bezori rolini o‘ynaydi, qolganlar esa yo‘lovchilar. Bezori avtobusdagi ikkita o‘rindiqni egallab olib, biriga o‘zi o‘tiribdi, biriga esa magnitofonni qo‘ygan. U hech kimga joy bermoqchi emas. Yo‘lovchilardan har biri bezori bilan til topishib uning yoniga o‘tirishga harakat qilib ko‘rish kerak. Shart shuki – maqsadga janjalsiz erishish lozim.

Yuqoridagi ko‘rib o‘tgan treninglarimizni umumtali maktablaridagi amaliyotchi psixologlar, sinf rahbarlari tomonidan o‘rinli foydalanilsa, o‘quvchilarning qobiliyatlari rivojlanishida, iqtidorlarini o‘z vaqtida namoyon etishlarida o‘z samarasini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. F.A.Akramova, N.A.Israilova, T.L.Xurvaliyeva. Ijtimoiy – psixologik trening va mashqlar to‘plami. Toshkent 2014.
2. V.M.Karimova. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2002. 3. M.G.Davletshin, S.M.To‘ychiyeva. Umumiy psixologiya. – T.: 2002
3. Aliyeva B. Umumta’lim maktablari o‘quvchilari bilan o‘tkaziladigan psixologik masj q va treninglar. Journal of innovations in social science. Volume: 02 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2181-2594

ASOSIY QOMUSIMIZDA TA'LIMGA YANGICHA YONDASHUVNING AKS ETISHI

Qurbonov Sayqal Sa'dulayevich

Surxondaryo viloyati Uzun tumani

41-maktab direktori

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Konstitutsiyamizda ta'limga oid o'zgarishlarning aks etishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Asosiy qonun, pedagog, majburiyat, kasbiy, faoliyat, norma.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasini e‘lon qildi. Loyihada asosiy qonunning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o‘zgartishlar kiritish hamda 16 ta normani o‘z ichiga olgan 6 ta yangi modda (prim-moddalar) qo‘shish taklif etilmoqda. Bu o‘zgarishlar ichida ta‘lim sohasiga oid 41-modda ham bor. Va unda quyidagi masalalar belgilab berilganini ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgarish kiritishga doir takliflar ichida 41-moddani o‘zgartirish bo‘yicha bildirilgan takliflar ijobiy yechim topishi amalda konstitutsiyamizning milliy qiyofasini belgilab beradi. Boisi ushbu takliflarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, “pedagog xodimlarning maqomini har jihatdan mustahkamlash jamiyat va davlatning maqsadi ham mas‘uliyatli vazifasidir. Pedagog xodimlarning kasbiy faoliyatiga aralashishga, shuningdek, ularning xizmat majburiyatlarini bajarishiga monelik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi” degan normalar bilan boyitish taklif qilinmoqda. Bu mamlakatimizning qisqa tarixida yuz bergan salbiy holatlar hamda ushbu holatlarning xalqimizning milliy mentalitetiga zid bo‘lganligi sababli ko‘pchilik fuqarolarimizning haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lganligi bilan bog‘liq holatlarning oldini

olish imkonini beradi. Xalqimizda “Ustoz otangdek ulugʻ” degan naql bor va ustozlarni hurmat qilish milliy xarakterimizning ajralmas qismidir. Afsuski, 2017 yilgacha oʻqituvchilar, hatto maktab oʻquvchilarining ham paxta terimiga majburlanishi, bu davrda mashgʻulotlar chetga surib qoʻyilishi, bu ham yetmagandek, ayrim rahbarlarning oʻz vakolatlaridan chetga chiqib, taʼlim muassasalari oʻqituvchilarini obodonlashtirish, hatto qurilish ishlariga majburlanishi oxir-oqibat taʼlim tizimiga putur yetkazdi. Buni toʻgʻri anglagan Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, prezidentlik muddatining birinchi kunlaridanoq taʼlimni isloh qilishni, birinchi navbatda oʻqituvchilarning obroʻ-eʼtiborini oshirishdan boshlash lozimligini taʼkidlab kelmoqda. Va yangilanayotgan konstitutsiyaning 41-moddasini yuqoridagi normalar bilan boyitishi haqidagi takliflari ham, oʻsha keyingi 5-6 yil davomida amalga oshirib kelinayotgan ijobiy ishlarning navbatdagi bosqichi boʻldi, deb oʻylayman.

Ushbu moddaga kiritilayotgan yangi normalardan yana biri – isteʼdodli yoshlarning moddiy ahvolidan qatʼi nazar taʼlim olishlarini davom ettirishlarini davlat oʻz zimmasiga olayotganligidir. Maʼlumki, yangi konstitutsiyada konseptual oʻzgarish yasayotgan normalardan biri – mamlakatimizni “ijtimoiy davlat” deb eʼlon qilinayotganidir. Ijtimoiy davlatning asosiy belgilaridan biri jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglikning taʼminlanganligidir. Shunga koʻra, 41-moddaga kiritish taklif etilayotgan yuqoridagi norma davlat isteʼdodli yoshlarni keng, jumladan moddiy ahvolidan ham qatʼi nazar, qoʻllab-quvvatlashini nazarda tutadi.

Keyingi vaqtlarda mamlakatimizda bu borada qator ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Oʻzbekistonda keng oʻtkazilayotgan “Yosh kitobxon” va “Zakovat” tanlovlari, isteʼdodli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash “Ulugʻbek” jamgʻarmasi hamda iqtidorli yoshlarning xorijiy nufuzli taʼlim muassasalarida tahsil olishlarini qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan “El-yurt umidi” jamgʻarmalari faoliyatining davlat tomonidan keng qoʻllab-quvvatlanayotgani shular jumlasidandir. Xususan, iqtidorli yoshlarning xorijiy tillarni oʻrganishlari va xalqaro sertifikatlariga ega boʻlishlarini ragʻbatlantirish uchun ushbu sertifikatga ega boʻlgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. 2021 yil 1 maydan 5 turdagi, 2022 yil 1 yanvardan 13 turdagi (jami 18

turdagi) xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijaga erishgan yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berilmoqda. Bugunga qadar mazkur tizim orqali 5441 nafar yoshlarning imtihon xarajatlari qoplab berildi va bu qariyb 10 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda.

Ushbu normalarning konstitutsiyaga kiritilishi ko‘pchilikni qiziqtirayotgan yana bir muammoga ham ijobiy yechim bo‘lib, o‘z hissasini qo‘shadi. Ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda mulkchilik shakli turlicha bo‘lgan oliy ta’lim muassasalari ko‘payib bormoqda. Ayrim xususiy ta’lim muassasalari ta’lim berish sifatiga ko‘ra mamlakatimizning otaxon universitetlarini ham ortda qoldira boshladi. Iste’dodli yoshlarning ushbu muassasalarda tahsil olishlari esa, ulardagi iste’dodning yanada sayqallanishiga olib keladi. Yangi konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan davlatning ijtimoiy ekanligi, iste’dodli yoshlarning moddiy ahvolidan qat’i nazar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi hamda 41-moddada taklif etilayotgan yana bir norma – mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha turdagi ta’lim muassasalari rivojlanishi uchun davlat teng sharoitlar yaratib berishi to‘g‘risidagi normalarga tayangan holda aytish mumkinki, yangilangan Konstitutsiya iste’dodli yoshlarni eng yaxshi ta’lim muassasalarida, u xoh xususiy bo‘lsin, xoh davlatniki, ta’limni davom ettirishlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Yunusov A. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya: ta’limga yondashuvni o‘zgartirish vaqti keldi. Kun.uz. 01.07.2022
2. Konstitutsiyaga taklif etilayotgan o‘zgarishlar ro‘yxati. Kun.uz. 25.06.2022
3. Konstitutsiyaga kiritilayotgan o‘zgarishlar muhokama qilindi. Xabar.uz. 28.06.2022

MEHNAT QONUNCHILIGIDA YANGI QABUL QILINGAN NORMALARNING AHAMIYATI

Xushnazarova Lobar Muhiddinovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mehnat huquqi mutaxassisligi magistranti

ANNOTATSIYA

Mehnat to‘g‘risidagi qonunlar ishchilarni himoya qilish bilan bir qatorda ularni kuchaytirish uchun ham ishlab chiqilgan. Ular ish beruvchi va xodim o‘rtasidagi munosabatlarni nazorat qilishni ta‘minlaydi, bu har ikki tomonning o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishiga imkon beradi. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligidagi yangi normalarning ijtimoiy hayotga tatbiq qilishning ahamiyati haqida qisqacha bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: mehnat, mehnat huquqi, qonunchilik, Konstitutsiya, normalar, demokratiya va h.k.

Ish beruvchi va xodim o‘rtasida tabiiy ierarxiya mavjud. Biroq, mehnat qonunlari kuchning bu nomutanosibligini tartibga solishga yordam beradi, shunda hech bir ish beruvchi o‘z xodimini ekspluatatsiya qila olmaydi va har ikki tomon ham mehnat sharoitlari bo‘yicha bir-biri bilan teng ravishda muzokara olib borishi mumkin. Xodim sifatida sizning ish joyingiz hayotingizning ayrim jihatlari uchun javobgar bo‘lishi mumkin. Bunga otalik ta‘tillari, ota-onalik ta‘tillari va moslashuvchan vaqt variantlari kabi oilaviy majburiyatlar kiradi. Sizning ish joyingiz ish va hayot muvozanatini o‘rnatishingiz uchun shaxsiy majburiyatlar davrida sizga pullik ta‘til berishga tayyor bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, umume’tirof etilgan mehnat qonunlarining eng muhim xususiyatlaridan biri bu bolalar himoyasini ta‘minlashdir. 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar ko‘p joylarda ishlashga ruxsat etilmaydi.

Huquqiy normalar davlat bilan chambarchas bog‘liq, davlatsiz huquq bo‘lishi mumkin emas, chunki davlat huquqni keltirib chiqaradi. Huquqiy normalarni amalga oshirishni kafolatlaydi. Har bir sohadagi huquq mehnatga borib taqaladi. Har qanday demokratik jamiyatda shu jamiyat taraqqiyoti qay darajada bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zining huquqiy manfaatlaridan kelib chiqib va inson huquqlarini himoyalashga asoslangan qonun asoslari, ya’ni Konstitutsiyasi bo‘lishi zarur. Bu Konstitutsiya, awalo, inson huquqlarini himoya qilishi, shu bilan bir qatorda, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar ham himoyalaniishi kerak. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 8-dekabrda o‘zining birinchi demokratik Konstitutsiyasini e’lon qildi. Bu Konstitutsiyaning IX bobi iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarni himoyalashga qaratilgan. 37-moddada «Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, oqilona mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko‘rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir» deyilgan, matn davomida «Sud hukmi bilan tayinlangan jazoni o‘tash tartibidan yoki qonunda ko‘rsatilgan boshqa hollardan (harbiy xizmat chog‘ida, favqulodda holat sharoitida va h.k.) tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi» deb qo‘yilgan. Shu bobning 38-moddasida «Barcha yollanib ishlayotgan fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to‘lanadigan mehnat ta’tilining muddati qonun bilan belgilanadi» deyilgan jumla ham ijobiy xususiyatga ega. Dam olish huquqini ta’minlash mana shu huquqning amalga oshirilishini ta’minlaydigan ijtimoiy bazaga asoslanishi kerak. Bu bandda ana shu bazani ta’minlash imkoniyatini beradigan qonun barpo etilishi mumkinligi belgilangan. Shuningdek, 39- moddada «Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordamning boshqa turlarining miqdori rasman belgilab qo‘yilgan tirikchilik uchun zarur eng kam miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas» deyilgan.

Yangi Mehnat kodeksi xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarining muvozanatini ta’minlash hamda ularni muvofiqlashtirish asosida yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy

munosabatlarni tartibga soladi. Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik quyidagi shaxslarga nisbatan (agar ular bir vaqtning o‘zida ish beruvchilar yoki ularning vakillari sifatida ish yuritmasa) tatbiq etilmaydi:

- ✓ muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilarga;
- ✓ tashkilotlarning kuzatuv kengashlari a‘zolariga;
- ✓ mazkur tashkilotning xodimlari bo‘lmagan taftish komissiyalari a‘zolariga (taftishchilarga);
- ✓ fuqarolik-huquqiy xususiyatga ega shartnomalar asosida ishlarni bajarayotgan (xizmatlar ko‘rsatayotgan) shaxslarga;
- ✓ agar qonunda belgilangan bo‘lsa, boshqa shaxslarga.

Kodeksda kamsitish deganda jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, yashash joyi, dinga bo‘lgan munosabati, e‘tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki bilvosita imtiyozlar berish tushuniladi. Majburiy mehnat biror-bir jismoniy shaxsdan jazoni qo‘llash tahdidi ostida talab etiladigan, bajarilishi uchun ushbu shaxs ixtiyoriy ravishda o‘z xizmatlarini taklif qilmagan har qanday ishni yoki xizmatni anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. «Adolat» 2017.
2. Saidov va boshq. Davlat va huquq asoslari. (Darslik) T., 2002.
3. Q. Yormatov, Y. Isamuhamedov. Mehnatni muhofaza qilish. (Darslik) T., 2002.
4. www.lex.uz

TABLE OF CONTENTS

Sr. No.	Paper/ Author
1	
	ГЕНДЕР ТЕНГЛИК МУАММОЛАРИ – ГЕНДЕР АДОЛАТ ЕТАКЧИСИ Қахҳоров С.Қ., Избуллаева Г.В. Page No.: 3-8
2	
	КРИТЕРИАЛЬНАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОЦЕНКИ УЧЕБНЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ Мамадазизова Зарина Аллаёровна Page No.: 9-12
3	
	TALABALARDA MASALA YECHISHDA TEXNIK IJODKORLIK TAJRIBASI Artikov Maqsud Baxadirovich Page No.: 13-16
4	
	MINERAL TÓGINLER TEMASIN OQITIW METODIKASI Jadigerova Shaxnoza Keunimjay qizi Page No.: 17-21
5	
	XIMIYADAN MÁSELELER SHESHIWDIÑ ÁHMIYETI Artikov Maqsud Baxadirovich, Jumanova Surayyo Shomurodovna Page No.: 22-25
6	
	TALABALARNING KIMYODAN MASALA YECHISHDA IJODIY TAFAKKURNING INTELLEKTUAL QIYINCHILIKLARI Artikov Maqsud Baxadirovich Page No.: 26-28

7

FEATURES OF AUDIT PLANNING IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Shavkatjonov Mardon Zokirjon o'g'li, Abdullaeva Nilufar Javdatovna

Page No.: 29-35

8

HAYVON ARXISEMALI LEKSEMALARINING INSON XARAKTERINI IFODALASHDAGI O'RNI

Ismailova Dilnoza Shavkatovna

Page No.: 36-39

9

ПЕРЕРАБОТКА НЕСТАНДАРТНОГО КОЖЕВЕННОГО СЫРЬЯ И ОТХОДОВ ПРОИЗВОДСТВ

Хайитов А.А., Комилов Ж.Ж.

Page No.: 40-45

10

LOKLI MINIATYURA SAN'ATINING SHAKLLANISH TARIXI VA O'ZIGA XOS BADIY USLUBI

Qarshiyeva Dilshoda Yalgash qizi

Page No.: 46-51

11

BIOGEN ELEMENTLERDIN AHMIYETI TEMASIN OQITIV METODIKASI

Temirov Adil Naurizbaevich, Tungishbaev Qasim Abay uli

Page No.: 52-56

12

RESPUBLIKAMIZNING JANUBIY-G'ARBIY VILOYATLARIDA QORAMOLLAR VA PARRANDALAR GELMINTOZLARINING EPIZOOTOLOGIYASI

Akramov Komiljon Shuhrat o'g'li, Meyliyev Salohiddin Salim o'g'li

Page No.: 57-61

13

INTIZOMIY JAZO OLGAN ISHCHI-XODIMNI RAG'BATLANTIRISH

Ramazonov Temurbek Farxod o'g'li

Page No.: 62-65

14

ВИДЫ, СВОЙСТВА И ПРИМЕНЕНИЯ КОСТНОГО КЛЕЯ

Отамуродов Журабек Отаниёзович, Саидов Жамшид Аббос угли

Page No.: 66-69

15

HOKIMLARNI LAVOZIMIGA TAYINLASH VA UNDAN OZOD ETISH MASALALARI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL

Muxammadiyev Sindorbek Bobirjon o'g'li

Page No.: 70-76

16

TENGLAMA VA TENSIZLIKLARNI YECHISHDA O'ZGARUVCHINI QUTB ALMASHTIRISHLARDAN FOYDALANISH

Jabborov Muxammadi Musurmon o'g'li, Muhammadiyev Samariddin Boymurod o'g'li

Page No.: 77-80

17

“АЛ-ЭЪТИМОД” АСАРИДА ИЙМОННИНГ ВОЖИБ БЎЛИШИ ВА УНИНГ МОҲИЯТИГА ОИД ҚАРАШЛАР ТАҲЛИЛИ

Маҳмудов Асрорхон Юсуфхонович

Page No.: 81-89

18

TO'R TENGLAMALARINI YECHISH METODLARI

Toshboyev Abdulakim Kamol O'g'li, Tursunov Javohirbek Abdurasulovich

Page No.: 90-93

19

ĞAWASHA SORTLARÍNDÁ 1000 DANA SHIGIT AWIRLIĞÍ HÁM BIR GÓREKTEGI ÓNIMDI SALISTIRIW

Djarasov Aydos Djarasovich, Seytmusaev Abat Idirisovich

Page No.: 94-96

20

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARINING TAFAKKURINI YUKSALTIRADIGAN O'TKAZILADIGAN PSIXOLOGIK MASHQ VA TRENINGLAR

Umirov Almardon Olmamatovich

Page No.: 97-99

21

**ASOSIY QOMUSIMIZDA TA'LIMGA YANGICHA
YONDASHUVNING AKS ETISHI**

Qurbonov Sayqal Sa'dulayevich

Page No.: 100-102

22

**MEHNAT QONUNCHILIGIDA YANGI QABUL QILINGAN
NORMALARNING AHAMIYATI**

Xushnazarova Lobar Muhiddinovna

Page No.: 103-105



“Educational Research in Universal Sciences”



“INTERNATIONAL CONFERENCE ON INNOVATIVE DEVELOPMENT OF EDUCATION 2022/17”

www.erus.uz

Languages of publication: o'zbek, english, русский, казак, точик

**TASHKENT, UZBEKISTAN
2022/ NOVEMBER 30**